



LEKSIK BIRLIKLARNING KONTEKSTUAL VA ASSOTSIATIV MA'NOLARI TAHLILI

Abdurashidova Iroda O'ktam qizi

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Bo'ronova Mashhura

G'ulomovna ijod maktabi o'quvchisi

Abstract: This article aims to enrich students' knowledge of linguistics, psychology, literary studies by analyzing the semantic properties of antonyms and synonyms within the framework of polysemantic, associative units.

Key words: lexeme, antonym, synonym, creator, meaning

So'zlar nutq jarayonida turli ma'nolarni ifodalaydi. Leksema sifatida lug'aviy ma'noga ega bo'ladi. M., yomg'ir so'zi "bulutlardan suv tomchilari holida tushadigan, yog'adigan yog'in" lug'aviy ma'nosini bildiradi. Polisemem leksema sifatida yana bir qancha ma'nolari mavjud bo'lib, badiiy matnlarda "ko'z yoshi" ma'nosida, o'q yomg'iri birikmasida "o'qning miqdori, shiddati" ma'nosida qo'llaniladi. Bu ma'nolar yomg'ir so'zining o'z va ko'chma ma'nolari sifatida tahlil etiladi. Yomg'ir so'zi pragmatik ma'noga ham ega. M-n: uydan tashqariga, ko'chaga, chiqayotgan kishiga "yomg'ir yog'yapti" gapi aytilsa, yomg'ir so'zi orqali "soyabon" ma'nosi anglashiladi, ya'ni bu gap orqali "soyabonni oling" gapi hosil bo'ladi. Ma'lumki, bir so'z orqali turli xil ma'nolarni ifodalash imkoni mavjud bo'ladi. Shu jihatdan, so'zning lug'aviy, uslubiy, pragmatik ma'nolarini chuqur o'rganish lozimdir. Ayniqsa, badiiy asarlarning mazmun-mohiyatini anglash, ijodkorning fikrini, his-tuyg'ularini ilg'ash uchun so'zning shakl va ma'no tomonlariga e'tibor qaratish kerak





bo'ladi. Ijodkorlar so'z qatiga turli xil ma'nolarni joylaydiki, uni topish, anglash, fikr yuritish o'quvchidan zehn, aql, idrok talab etadi. So'z sememasining semalari nihoyatda ko'p bo'lib, bu semalardan keragini topish va shu semaning so'zda voqelanishini ta'minlash ijodkordan bilim, mahorat talab etadi. So'zning e'tiborga olinmagan, ilg'ash qiyin

bo'lgan shunday semalari bo'ladiki, ijodkor bu semalarni badiiy matnda yuzaga chiqaradi. Xullas, matn mazmunini boyitishda so'zlarning shakl tomoni ham, ma'no tomoni ham alohida ahamiyatga egadir. Omonim, sinonim, antonimlar matn mazmunini boyituvchi asosiy vositalardir. Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida ham shunday so'zlar keng qo'llanilgan. Masalan:

Jangga kirib qo'shinlar,

Urushib oy-u kunlar

Dunyoni qon qildilar.

Tinchlik tugab och elda,

Mamlakat qoldi selda. [3;97]

Ushbu misralarda antonimlar leksik, semantik jihatdan har xil turi qo'llanilgan. Jang, qo'shin, urush so'zlari tinchlik so'ziga zidlanadi. Shoir bag'rimni qon qildi iborasini dunyoni qon qildi tarzida qo'llab tinchlik so'ziga qarshilantiradi. Iborani dunyoni qon qildi tarzda qo'llash bilan jang tasvirini jonlantiradi, shuningdek, jangdagi insonlarning his-tuyg'ulari, ruhiyati obrazli tasvir etiladi. Och so'zida ham "urush", "notinchlik" semalari mavjud bo'lib, shoir bu so'zni tinchlik so'ziga zidlash orqali antonim semalarni voqelantiradi. Sel so'zi ham ko'p ma'noli so'z bo'lib, "notinchlik" semasiga ega. Shu semasi asosida tinchlik so'ziga antonim bo'ladi. Shoir bu misralarda tinchlikni buzish oqibatida yuzaga keladigan holatlarni so'zning lisoniy va badiiy imkoniyatlaridan mohirona foydalangan





holda bayon etadi. O'quvchi bu misralarni o'qir ekan, isyon qilgan qullarning iztiroblarini his qiladi. Urushning oqibatlarini tasavvur etadi. Shoir tinchlik so'ziga jang, qo'shin, urushib, dunyoni qon qildilar, och el, mamlakat qoldi selda kabi so'z va iboralarni zid qo'llaydi va urushning oqibatini obrazli ifodalaydi. Bunday zid ma'no ifodalovchi so'zlarni tahlil etishda so'zning lug'aviy, pragmatik, assotsiativ ma'nolariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Ayniqsa, antonim, sinonimlarning semantik xususiyatlarini polisemantik, assotsiativ birliklar doirasida tahlil etish orqali o'quvchilarning tilshunoslik, kognitologiya, psixologiya, adabiyotshunoslik kabi fanlarga oid bilimlarni boyitish imkoni bo'ladi.

Ardoqli shoira Zulfiyaxonim she'rlarida sinonim so'zlar keng qo'llanilgan:

Maktublar yozding sen, maktublar bitdim,

Goh ko'zda nam qalqib, gohida xushbaxt.

She'r bilan, so'z bilan qalbingga yetdim,

O'sha qalb men uchun eng sharaflı taxt.

(Zulfiya "Xalqimga aytar so'zlarim") [3;5]

Ushbu misralardagi yozmoq, bitmoq; she'r, so'z leksemalari ma'nodoshlik hosil qilgan. Yozding, bitdim so'zlaridagi semantik farq pragmatik xususiyatlarni aks ettirgan. Maktublar yozding va maktublar bitdim jumllaridagi o'ziga xoslik ularni ketma-ket keltirish orqali aniq ifoda etilgan. Yozding so'ziga nisbatan bitdim so'zida hissiy-ta'siriy bo'yoqdorlik, emotsionallik, munosabat kuchliroq ifodalangan. Bitdim so'zining bunday xususiyatlari orqali shoira o'z muhabbatining yorining sevigisidan kuchliroq ekanligiga ishora qiladi.





Xullas, soʻzning maʼno tomoni serjilo boʻlib, ijodkor oʻz fikrini, munosabatini, his-tuygʻularini ifodalashda undan oqilona foydalanadi. Oʻquvchi esa bu maʼnolarni ilgʻash uchun fikr yuritadi. Tafakkurini oʻstiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bois barkamol yoshlarni tarbiyalashda, soʻz sehrini namoyon qiluvchi badiiy asarlarning oʻrni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M.Mirtojiyev Oʻzbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz soʻz. 2010.
2. H.Olimjon, “Semurgʻ”. – T.: Yangi nashr, 2019.
3. Zulfiya “Saylanma”. Nashrga tayyorlovchilar H.Olimjonova, O.Olimjonov.-T.: Sharq,2016